

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Do'simov Shohruh

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 5-10

FILOLOGIYA FANLARI

Zayniddinova Sevinch

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI 11-14

Pulatova Asal

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI
IFODALOVCHI KONSEPTLAR 15-18

Burxonova Gulmira

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI 19-23

Nosirova Shoiraxon

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI 24-28

Султонова Лолахон

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") 29-33

YURIDIK FANLAR

Kalimbetov Nesip

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI 34-38

PEDAGOGIKA FANLARI

Tojiboyeva Shohistaxon

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI
RIVOJLANTIRISH MODELI 39-41

Баймуратова Ирина

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ 42-44

Zokirova Ma'suma

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI 45-49

Maxkamova Husnida

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI" TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI 50-54

Qo'chqarov Bahodir

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 55-60

Adasheva Xilola

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI 61-66

Abduqahhorova Mahliyo

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI 67-70

PEDAGOGIKA FANLARI

LINGVODIDAKTIK RESURLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI RIVOJLANTIRISH MODEL

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Fakultetlararo chet tili kafedrasida dotsenti v.b.,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd),

Annotatsiya. Ushbu tezis "Lingvodidaktik resurslar asosida tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirish modeli" mavzusini o'rganadi. Tanqidiy fikr yuritish, ta'lim jarayonida muhim ko'nikmalardan biri bo'lib, o'quvchilarning analitik va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tezisda lingvodidaktik resurslar, jumladan, matnlar, audio-vizual materiallar va interaktiv o'yinlar orqali tanqidiy fikr yuritishni qanday qilib samarali rivojlantirish mumkinligi tahlil qilinadi. O'qituvchilar uchun yangi metodologiyalar va strategiyalar taklif etilib, turli pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarning tanqidiy fikr yuritish qobiliyatlarini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, tajribaviy natijalar asosida lingvodidaktik resurslarning ta'sirini baholash va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish usullari keltiriladi.

Kalit so'zlar. Lingvodidaktik resurslar, tanqidiy fikr, rivojlantirish modeli, innovatsion metodlar, ta'lim jarayoni, o'quvchilar faolligi, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlar, media, interaktiv o'yinlar.

MODEL FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING BASED ON LINGUODIDACTIC RESOURCES

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

Termiz University of Economics and Service,
Interfaculty Department of Foreign Languages Associate Professor (acting),
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation. This thesis examines the topic of "A Model for Developing Critical Thinking Based on Linguodidactic Resources." Critical thinking is one of the key skills in the educational process, as it contributes to the development of students' analytical and creative abilities. The thesis analyzes how critical thinking can be effectively developed through linguodidactic resources, including texts, audio-visual materials, and interactive games. It proposes new methodologies and strategies for teachers and demonstrates the conditions necessary for enhancing students' critical thinking skills through various pedagogical approaches. In addition, based on experimental results, the thesis evaluates the impact of linguodidactic resources and presents methods for integrating them into the educational process.

Keywords: linguodidactic resources, critical thinking, development model, innovative methods, educational process, student activity, logical thinking, problem situations, media, interactive games.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n08>

Kirish. Zamonaviy axborot asrida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ko'p qirrali dalillarga tayangan holda mantiqiy xulosalar qilish, manipulyativ xabarlar oldida ehtiyotkorlik bilan o'ylash, ijodiy va tahliliy yondashuvda bo'lish kabilar - ta'limdagi asosiy maqsadlarga aylandi. Tanqidiy fikr (critical thinking) - o'quvchilarda turli ko'nikma va aqliy faoliyat shakllanishida muhim o'rin tutadi. Chet tili ta'limida esa bu jarayonni samarali tashkil etish, ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikr yuritish kompetentligini shakllantirish orqali yuzaga chiqadi. Lingvodidaktik resurslar - lingvistik va didaktik ma'lumotlarni birga qo'llash, chet tili o'qitish jarayonida darsliklar, multimedia, interaktiv dasturlar, avvalgi

tilshunoslik yutuqlari, zamonaviy metodika nazariyalari, shuningdek, madaniy kontekstlarni jamlovchi manbalar asosida ijodiy mashg'ulotlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. Ushbu resurslar chet tilini faqat fonetika, lug'at, grammatika nuqtayi nazaridan emas, balki tanqidiy tahlil, ijodkor izlanish, muqobil fikr kabi jihatlarni qo'shib o'rganishga ham xizmat qiladi.

Tanqidiy fikr mazmuni va uning pedagogik talqini. Tanqidiy fikr – shaxsning turli axborot, xabar, dalil va fikrlarga izchil hamda xolisona yondashuvi, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni inobatga olish, dalillarni tahlil va sintez qilish, muqobil qarorlarni baholash, o'z xulosalarini asoslash hamda manipulyatsion ifodalarni payqash qobiliyatidan iborat. Schwarz ta'kidlashicha, tanqidiy fikr shaxsning “o'z avvaldan mavjud e'tiqodlari yoki taxminlarini ham muqobil nuqtayi nazar manfaati uchun qayta ko'rib chiqish, agar dalillar shunga undasa, xulosasini o'zgartirishga tayyor bo'lish” kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi[1]. Bu tasnifdan kelib chiqib, tanqidiy fikrni ta'lim jarayonida rivojlantirish – o'quvchilarning umume'tirof etilgan dalil va xulosalar bilan cheklanmasligi, har bir ma'lumotni kognitiv tekshirish filtri orqali izchil tahlil etishi, subyektiv hissiyot o'rniga asosli isbot-topish tamoyiliga asoslanishi demakdir.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi uchun tanqidiy fikrning ahamiyati. Kurland fikricha, chet tili pedagogikasida tanqidiy fikr – lingvistik material bilan ishlash jarayonida “dalillarni tekshirish, matndagi mumkin bo'lgan fikrlar va noto'g'ri talqinlar, muallifning madaniy kontekstlarini mulohaza qilish, manipulyatsion unsurlarni ajratish” kabi bosqichlarni nazarda tutadi. O'qituvchi o'zi tanqidiy fikrlash malakasiga ega bo'lmasa, o'quvchilarga ham shunchaki “tayyor ma'lumot” yetkazish bilan kifoyalanib, ijodkorlik va mustaqil tafakkurni cheklab qo'yishi mumkin[2]. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari chet tilidagi turli ilmiy adabiyot, badiiy matnlar, blogpostlar, yangiliklar, ijtimoiy tarmoq xabarlar bilan ishlashadi. Bu manbalarda “lingvistik manipulyatsiya”, “kontekst bo'rttirilishi”, “qarama-qarshi ma'lumotlar” mavjud bo'lishi mumkin. O'qituvchi bu manbalarni tahlil qilish, dalil so'rash, xulosa chiqarish, so'ngra o'quvchilarga ham shu mas'uliyat bilan yondashishni o'rgatish jarayonida tanqidiy tafakkurga ega bo'lishi zarur.

Lingvodidaktik resurslar: Lingvodidaktik resurs – chet tili o'qitish metodikasi (didaktika) bilan lingvistik (fonetika, leksikologiya, grammatika, pragmalingvistika) tamoyillarini uyg'unlashgan holda qo'llash uchun yaratilgan yoki mavjud bo'lgan vositalar to'plamidir. Bular darsliklar, audio/video, onlayn platformalar, savol-javob mashqlari, simulatsiyalar, keys, multimediya, testlar, interaktiv dasturlar bo'lishi mumkin. Widdowson lingvodidaktik resurslarni “o'quvchilarga lingvistik ko'nikmalarni o'zlashtirishda metodik yondashuvni ta'minlaydigan, tildan kommunikatsion amaliyot sifatida foydalantirishga imkon beradigan didaktik vosita” deb ta'riflaydi[3]. Chunki chet tili nafaqat lingvistik bilimlar majmui, balki madaniy, ijtimoiy, nutqiy faoliyat jarayoni hamdir. Lingvodidaktik resurslarning to'g'ri tanlovi o'quvchilarga chet tili matnlarini tanqidiy ko'z bilan ko'rish, leksik va grammatik xatolardan tashqari, mantiqiy yoki hissiy manipulyatsiyalarni ham payqash salohiyatini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrni lingvodidaktik resurslarga singdirish ahamiyati. Richards qayd etadiki, lingvodidaktik resurslar shunchaki lug'at va grammatik ma'lumot bilan chegaralanmasdan, “o'quvchilarga turli janrdagi matnlarni taqdim etish, mazmunga tanqidiy yondashish, grammatik shakllarni kontekstda tahlil qilish, muallif nuqtayi nazarini baholash” kabi didaktik maqsadlarni ham qamrab olishi mumkin. Bu tanqidiy fikr ongini shakllantirishda samarali omil sifatida namoyon bo'ladi[5].

Ingliz tili darslarida lingvodidaktik resurslardan foydalanish misollar:

Xabarni lingvistik tahlil: Muallif kim, ma'lum so'z, idiomalar, dalillar taqdimoti, manipulyatsion bo'rttirish bormi?

Nisbatan hissiy so'zlarni aniqlash: Bayonotlar subyektiv so'zlar bilan bezalganmi yoki daliliy manbaga tayanadimi?

Muammoli vazifalar: O'quvchilar keskin yondashuvlarga duch kelganda, turli nuqtayi nazar dalillarini qiyoslab, xulosa tuzishadi.

Tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirish modeli: lingvodidaktik asos. Chet tili ta'limida tanqidiy fikrni rivojlantiruvchi lingvodidaktik model – bu lingvistik mazmun va tanqidiy tafakkur tamoyillarini o'zaro uyg'unlashtirgan pedagogik konstruktsiya demakdir. Harmer mazkur modelni "lingvistik mahorat bilan og'zaki va yozma nutqdagi dalil-isbot, mulohaza, mantiqiy xulosa, manipulyatsion ifoda kabi unsurlarni izchil ravishda tahlil qilish jarayoniga asoslangan dars loyihasi" deya ta'riflaydi. Model shunday bosqichlarni nazarda tutadi:

Kirish bosqichi: O'quvchilarga (yoki bo'lajak o'qituvchilarga) lingvodidaktik resurslar – maqola, audio, videolar, blog, ijtimoiy post kabilar bilan tanishtirish, tanqidiy savollarni shakllantirish;

Tahlil: Lingvistik nuqtayi nazardan (lug'at, kontekst, madaniy unsurlar) baholash, dalil-isbot, muallif maqsadi, manipulyatsiyalar, hissiy so'zlar;

Interfaol metod: Keys, debate, rolli o'yin, brainstorming, "Fishbone" usuli;

Xulosa: Tahlil natijasida o'quvchilar mustahkam, pishiq dalillarga asoslangan xulosaga kelishlari, shu jarayonni lingvistik hamda didaktik jihatdan sharhlash.

Xulosa: "Lingvodidaktik resurslar asosida tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirish modeli" - chet tili (xususan ingliz tili) pedagogikasida bo'lajak ustozlar salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan zamonaviy yondashuvdir. Mazkur modelda lingvodidaktik vositalar (metodik qo'llanmalar, matnlar, audio-video, onlayn platformalar, interaktiv dasturlar) tanqidiy yondashuv elementi bilan boyitiladi. Shu orqali o'quvchilar - o'qituvchining bosh jarayon ishtirokchilari - har bir matn, xabar yoki dalilni lingvistik, madaniy, kontekstual, manipulyatsion jihatlardan sinchiklab ko'rish, savollarni aniqlash, dalil-isbot topish, muqobil qarashlarga e'tibor qaratish, hissiy manipulyatsiyaga bermasdan xulosa qilish kabi aqliy amaliyotlar orqali kamol topadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi esa bunday jarayonni eng avvalo o'zida mustahkam shakllantirib, shundan keyin o'quvchilarga ham tanqidiy fikr ko'nikmalarini o'rgatish salohiyatiga ega bo'ladi. "Lingvodidaktik resurslar asosida tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirish modeli" hozirgi va kelajak ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilarning mustahkam kompetentlikka ega bo'lishiga, ijodiy va daliliy fikrlash, manipulyatsion xabarlariga qarshi turish, ijtimoiy-lingvistik jarayonlarda xolis va asosli qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi. Mazkur modelni baholash usullari (test, keys, debate, portfolio va b.) esa tanqidiy fikrning real darajasini ob'ektiv baholash, takomillashtirish, shuningdek, bo'lajak ustozlarda professional yuksalish sur'atini saqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mamatmurotov, O. K. "Tanqidiy fikrlashning pedagogik aspektlari." *Inter education & global study* 5 (2024): 275-282.
2. Sattorova, Fazilat. "Lingvistik kompetensiyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi ahamiyati." *Uzbekistan: Language and Culture* 2.2 (2021).
3. Hamroyeva, Sanobar. "Ingliz tili amaliy mashg'ulotlarida talabalarning tibbiy-texnik tafakkurini shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini rivojlantirish metodi." *Теоретические аспекты становления педагогических наук* 4.5 (2025): 84-89.
4. Begaliyev, Fayzali. "Multimediali ilovalar asosida sun'iy intellekt fanini o'qitish usullari." *Теоретические аспекты становления педагогических наук* 3.23 (2024): 138-142.
5. Hakimova, Hakimova, and Nilufar Zubaydova. "Ingliz tilidagi onlayn ta'lim resurslarining til o'rganishdagi ahamiyati." *problems and solutions of scientific and innovative research* 1.6 (2024): 297-301.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.